

**ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERNING “KUZ CHIZGILARI”
SHE’RI: TABIIY MANZARALAR VA INSON HISSIYOTLARI**

Nurmaxmatova Furuza Rasulovna

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: Aleksandr Arkadevich Faynberg asarlarida teran falsafiy mulohaza va hayotiy haqiqatlarni oddiy so‘zlar orqali o‘quvchiga ta’sirli tarzda yetkazib bera olgan mohir nazm ustalaridan biridir. Uning she’rlarida tabiiy manzaralar inson ruhiy olamida yuz berayotgan o‘zgarishlar va holatlarni aks etuvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Faynberg ijodiyotida ko‘pincha kuz fasli hayotning o‘zgaruvchanligi, xotirjamlik va ma’yuslik kayfiyatlarini aks ettiruvchi ramzdir. She’riy til va poetik uslubi orqali shoir faqat vizual manzarani emas, hissiy tajribani ham beradi. U tabiatning har bir jabhasini inson ruhiyati bilan hamohanglashtiradi, hayotiy jarayonlarni chuqur falsafiy tafakkur bilan bog‘laydi. Shu boisdan, Faynberg lirikasi o‘quvchida estetik zavq uyg‘otib, hayot va inson mavjudligi haqidagi mulohazalarga chorlaydi. Mazkur maqolada Aleksandr Arkadevich Faynbergning “Kuz chizgilari” she’ri yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Faynberg, she’riyat, kuz, tabiat, inson hissiyotlari, ma’yuslik, vaqt, falsafa, tabiiy manzara, ruhiy kayfiyat, hayotiy haqiqat, o‘tkinchilik, mehnat hayoti, tabiat va inson uyg‘unligi, nostalji.

Abstract: Alexander Arkadyevich Feinberg is one of the masterful masters of poetry, who was able to convey deep philosophical reflections and life truths to the reader in simple words. In his poems, natural landscapes appear as a means of reflecting the changes and situations taking place in the human spiritual world. In Feinberg's work, autumn is often a symbol of the variability of life, tranquility and melancholy. Through poetic language and

poetic style, the poet conveys not only a visual landscape, but also an emotional experience. He harmonizes every aspect of nature with the human psyche, connects life processes with deep philosophical thought. Therefore, Feinberg's lyrics evoke aesthetic pleasure in the reader and invite reflections on life and human existence. This article discusses the poem "Autumn Drawings" by Alexander Arkadyevich Feinberg.

Keywords: Feinberg, poetry, autumn, nature, human emotions, sadness, time, philosophy, natural landscape, spiritual mood, life's truth, transience, working life, harmony of nature and man, nostalgia.

Аннотация: Александр Аркадьевич Файнберг — один из выдающихся поэтов, умевший простыми словами передавать читателю глубокие философские размышления и жизненные истины. В его стихах природные пейзажи выступают как средство отражения изменений и ситуаций, происходящих в духовном мире человека. В творчестве Файнберга осень часто является символом изменчивости жизни, спокойствия и меланхолии. Посредством поэтического языка и стиля поэт передает не только визуальный пейзаж, но и эмоциональный опыт. Он гармонизирует каждый аспект природы с человеческой психикой, связывает жизненные процессы с глубокими философскими размышлениями. Поэтому лирика Файнберга вызывает у читателя эстетическое наслаждение и побуждает к размышлениям о жизни и человеческом существовании. В данной статье рассматривается стихотворение «Осенние рисунки» Александра Аркадьевича Файнберга.

Ключевые слова: Файнберг, поэзия, осень, природа, человеческие эмоции, печаль, время, философия, природный ландшафт, духовное настроение, истина жизни, быстротечность, трудовая жизнь, гармония природы и человека, ностальгия.

Aleksandr Arkadevich Faynbergning “Kuz chizgilari” she’ri uning ijodidagi eng muhim jihatlardan biri bo’lgan inson va tabiat o’rtasidagi uyg’unlikni chuqur falsafiy tafakkur bilan hamohanglashtirish uchub xizmat qiladigan durdona namunalardandir. She’r

kitobxonga kuz faslining o'ziga xos osoyishtaligi bilan bir qatorda melanxolik kayfiyatni ham his ettiradi. Bu bilan hayotning o'tkinchiligi hayotni ko'z ochib yumguncha o'tib ketishi, vaqt va inson ruhining murakkabligi xususida umumiy tasavvur hosil qilinadi. Faynberg ijodida kuz fasli ko'p hollarda inson ichiki olamida o'zgarib turuvchi holatlar, xotirjamlik, ma'yuslikni ramziy tarzda ko'rsatib beradi. Bu esa she'rni falsafiy jihatdan boyitadi. She'rning mazmuni orqali muallif o'quvchiga tabiat manzaralari va inson amalga oshirayotgan harakatlar orasidagi hamohanglikni his etish imkoniyatini yaratib beradi.

KUZ CHIZGILARI

Yoz umuman yo'qqa o'xshaydi,

Tumanlarda titraydi g'aram.

Ot-arava ingrab-qaqshaydi,

Sho'x sohillar yetimdek purg'am.

Qo'llarimning qoraygan tusi,

Kaftlarimdan anqiydi ruda.

Solidol va yonilg'i isi,

Xullas kalom, anqiydi sho'ra.

Xo'b eriydi qishloqlar olis,

Dalalarga yog'adi yomg'ir.

Otlar ko'zi kirtaygan, ma'yus,

G'ildiraklar izlari chuqur.

She'rning birinchi qatorlari yozning o'tganligi va uning endi mavjud emasligi tasviri orqali vaqtning tezligi, hayotning o'tkinchiligi kabi tuyg'ularni beradi. Tuman va g'aram

tasvirlari nafaqat tabiiy hodisa, balki inson ruhidagi xiralik, noaniqlik timsoli sanaladi. Shuningdek, Faynbergning tilidagi ritm va ohang kitobxonga kuz faslining sokin, lekin melanxolik kayfiyatini beradi.

Keyingi misralardagi transport vositalari va sohillar tasnifi bilan inson faoliyati va tabiatning uyg'unligi va bir vaqtning o'zida yolg'izlik, olislik hissini ko'rsatib beriladi. Sho'x sohillarga "yetimdek" tasviri berilishi kuzning ma'yusligini yanada kuchaytiradi.

“Qo'llarimning qoraygan tusi,

Kaftlarimdan anqiydi ruda.

Solidol va yonilg'i isi,

Xullas kalom, anqiydi sho'ra.”

Yuqoridagi to'rtlikda esa oddiy mehnat hayoti va tabiat detallari bog'liqlikni yuzaga keltirgan. Qo'llarning qorayishi va kaftlardan anqiydigan ruda, solidol va yonilg'i islari kuzni sezgir hissiyotlar bilan ifodalaydi. Bu yerda muallif tabiat bilan insonni bir-biriga o'tkazmasdan, ularni birlashtiruvchi poetik til orqali ifodalaydi.

“Xo'b eriydi qishloqlar olis,

Dalalarga yog'adi yomg'ir.

Otlar ko'zi kirtaygan, ma'yus,

G'ildiraklar izlari chuqur.”

Ushbu so'nggi bandeda Faynberg kuzga xos bo'lgan iliqlikdan keyin sovuqliklarni ham ifodalaydi. Bu misralardagi tasvirlar inson hayotining davom etaverishi, vaqt oqimi va tabiat uyg'unligini ifodalaydi. Kuz faslining o'zgacha sokinligi va ozgina ma'yuslik ohangi, hayotdagi orzu, xotirjamlik va nostalgia hisslari uyg'onadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Aleksandr Arkadevich Faynbergning "Kuz chizgilari" she'ri tabiiy manzaralar, insoniy hislar va hayot falsafasini o'zida jamlagan asardir. She'rning tili va vizual sahnalari o'quvchiga shu jarayonlarni boshdan kechiribgina ega bo'lish mumkin bo'lgan hissiy tajribani taqdim etadi. Kuz fasli sokinligi, ma'yuslik ruhi, inson hayoti o'tkinchiligi va tabiat manzaralari birga falsafiy asar yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aleksandr Faynberg. Saylanma asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2010.
2. Aleksandr Faynberg. She'rlar to'plami. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2007.
3. Ozod Sharafiddinov. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi nashriyoti, 2005.
4. Ibrohim Haqqul. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Akademnashr, 2011.
5. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2002.
6. Ziyonet ta'lim portali materiallari.